

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Sultonov

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili 224

M.A.Boltaboyev

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati 234

Sh.B.Jumayeva

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat 239

M.R.Sodiqova

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) 244

A.X.Nigmatov

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari 251

M.B.Nazirov

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri 257

B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi 260

M.A.Maxmudov

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati 266

I.B.Boxodirov

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi 270

J.Sultonov

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi 273

O.B.Nizomiddinov

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) 279

O.H.Jaynarov

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) 284

O.M.Normatov

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida 289

Y.A.Shukurillayev

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari 293

ILMIY AXBOROT

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar 297

X.J.Isomiddinov

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari 300

M.B.Nazirov

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri 304



UO'K: 94(575.1):908(575.1)

**ROSSIYA IMPERIYASI KO'CHIRISH SIYOSATINNING FARG'ONA VILOYATI TUB
AHOLISINING IQTISODIY-IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ ЗАМЕНЫ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ НА ЭКОНОМИКО-
СОЦИАЛЬНУЮ И КУЛЬТУРНУЮ ЖИЗНЬ НАСЕЛЕНИЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**THE EFFECT OF THE RUSSIAN EMPIRE'S POLICY OF REPLACEMENT ON THE ECONOMIC-
SOCIAL AND CULTURAL LIFE OF THE POPULATION OF FERGANA REGION**

Nazirov Mirjalol Baxodirjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining Farg'ona vodiysiga ko'chirish siyosati va uning mahalliy aholiga ta'siri tahlil etiladi. Rossiya hukumati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasini mustamlaka qilish jarayonida rus, ukrain va boshqa slavyan xalqlarini mintaqaga ko'chirish siyosatini olib bordi. Ushbu siyosat natijasida Farg'ona vodiysida ijtimoiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar yuzaga keldi. Maqolada ko'chmarchilar joylashtirilishi, mahalliy aholi bilan munosabatlari, agrar masalalar hamda Rossiya ma'muriyatining siyosiy maqsadlari yoritiladi. Shuningdek, bu jarayonning mintaqadagi milliy va diniy muhitga ta'siri ham tahlil qilinadi. Maqola arxiv hujjatlari, ilmiy manbalar va tarixiy tadqiqotlar asosida yozilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется политика переселения Российской империи в Ферганскую долину и ее влияние на местное население. Во время колонизации Туркестана в конце 19 - начале 20 веков российское правительство проводило политику переселения в регион русских, украинцев и других славянских народов. В результате этой политики в Ферганской долине произошли социальные, экономические и демографические изменения. В статье рассматриваются расселение переселенцев, отношения с местным населением, аграрные вопросы и политические цели российской администрации. Также анализируется влияние этого процесса на национально-религиозную среду региона. Статья написана на основе архивных документов, научных источников и исторических исследований.

Abstract

This article analyzes the Russian Empire's relocation policy to the Fergana Valley and its impact on the local population. During the colonization of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the Russian government pursued a policy of moving Russian, Ukrainian and other Slavic peoples to the region. As a result of this policy, social, economic and demographic changes occurred in the Fergana Valley. The article covers settlement of settlers, relations with the local population, agrarian issues and political goals of the Russian administration. The impact of this process on the national and religious environment in the region is also analyzed. The article is written on the basis of archival documents, scientific sources and historical research.

Kalit so'zlar: ko'chirish, tub yerli aholi, moddiy boyliklar, talon-taroj, hosildor yerlar, harbiy, ijtimoiy ahvol, soliqlar, iqtisodiy qiyinchilik.

Ключевые слова: переселение, коренное население, материальные блага, разграбление, плодородные земли, военные силы, социальное положение, налоги, экономические трудности.

Key words: resettlement, indigenous population, material wealth, looting, fertile lands, military, social situation, taxes, economic hardship.

KIRISH

Mustamlakachilik, xususan, eng avvalo hukmon doiralarning, armiyaning metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarning istilo etilgan mamlakat hatto, dominion tub aholiga nisbatan zo'rligini bildiradi. Binobarin, harbiy, siyosiy, xo'jalik, mafkuraviy zo'rlik biron-bir mamlakatdagi mustamlakachilik siyosati, amaliyoti sifatida, barcha G'arb va Sharq metropoliyalariga xos bo'lib, naqd moddiy boyliklarni talon-taroj qilish, mustamlakaning tabiiy, ishlab chiqarish, mehnat zahiralaridan, madaniy salohiyatidan foydalanishdan iborat edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Rasmiy tarixchilar va akademik adabiyotlar: Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosatini tahlil qilgan rasmiy tarixchilar, ko'pincha imperiya boshqaruvinga ijobiy tomonlarini

ta'kidlagan. Ular iqtisodiy rivojlanish va infratuzilmaning yaxshilanishi haqida yozgan bo'lsalar-da, aholi o'ttasida ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqqargan siyosatlarni kamroq muhokama qilishgan. Mahalliy tarixchilar: Farg'onada bo'lib o'tgan tarixiy jarayonlar haqida yozgan mahalliy tarixchilar, ko'proq imperiyaning bosqinchi va tazyiqchi siyosatini yoritganlar. Ularning asarlarida mahalliy aholi tomonidan qarshilik va mustamlakachilikka qarshi kurashning ko'plab misollari keltirilgan. Adabiy asarlar: Farg'ona vohasining ahvoli va Rossiya imperiyasining siyosatiga qarshi kurashgan ijtimoiy qatlamlarni tasvirlaydigan adabiyotlar ham mavjud. Bu adabiyotlarda, ayniqsa, ruslashuv va mahalliy aholi o'ttasidagi ziddiyatlar, mustamlakachilikning ijtimoiy oqibatlari ochib berilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mustamlaka ma'muriyati rus-tuzem maktablari tarmog'ini kengaytirish, o'quvchilar kontingenintini tub aholi hisobidan kengaytirish maqsadida har yili butun mahalliy millat aholisidan mablag' yig'ishni amalga kiritdi. Bunday maktablar bo'lmagan lekin ochilishi mo'ljallangan volostlar aholisi esa, bu siyosatni faol o'tkazib kelgan. V.P.Nalivkin ta'kidlaganidek, bunday maktab solig'ini to'lamagan, shuning uchun rus-tuzem maktablarini ochilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan [1;12].

Ayni mahalda rus-tuzem maktablarini jozibadorroq qilish va moddiy, o'quv-metodik jihatdan puxtalik baxsh etish uchun mustamlakachi ma'muriyat milliy zodagonlar vakillari - qozilar muftiyalar, yirik savdogarlar, sanoatchilar, zamindorlarni ushbu maktablarga nozir, vasiy qilib tayinlash bilan birga (bu ham madrasalar, an'anaviy, keyinchalik esa yangi usul maktablari rolini pasaytirishga xizmat qilmog'i lozim edi) bolalarni ona tilida (hujjatda "til" so'zi o'rniiga "lahja" ishlataligan) [2;31] - o'qitishni joriy etishga, ular uchun maxsus darslik yaratishgan edi.

O'zbek tili va uni o'qitish uslubining katta bilimdoni Saidrasul Saidazizov ma'muriyat topshirig'iga binoan "ustodi avval" darsligini yozdi. Bu darslik 1900-1922 yillarda 17 martda qayta nashr etildi [3;220]. 1899-1902 yillarda tub aholi bolalari bo'lmish o'quvchilarni Peterburg, Moskva, Nijniy Novgorodga, Rossianing boshqa yirik shaharlariga ekskursiyalarini, ya'ni targ'ibot safarlarini tashkil qilgan. 1899-yil yozida esa, hatto ularni podsho va malikaga tanishtirish darajasiga bordi. Shuni qo'shimcha qilamizki, o'shanda Rossiyaga borib kelgan o'quvchilar boy-badavlat odamlarning farzandlari edi, sayohat esa ota-onalar hisobidan – har bir sayohatchi uchun to'langan pul 120 rubldan tashkil qilgan edi. Mafkuraviy nuqtai nazardan qaraganda, bunday sayohatlarni uyushtirishdan maqsad mustamlakachilar uchun viloyat bilim yurtlari bosh muboshiri so'zları bilan aytganda, qo'yidagilardan iborat edi: "Sartlar (o'zbeklar-B.Z.) va qirg'izlar (ruslar qozoqlarni va qirg'izlarni shunday atardi-B.Z.)ning farzandlari Rossianing ulug'vorligi, qudrati va boyligini, aholining mashg'uloti, ishlab chiqarish unumдорligi, sanoati va savdo-sotig'ini ko'rib, buni o'zları ko'p vaqt xotiralarida saqlab qoladilar va uni boshqalarga aytadilar. Ular buyuk oq podshoning qudratli davlatida hamma yoqda faqat ruslar emas, balki barcha begonalar ham osoyishta yashayotganlarini ko'rishadi".

Xolislik uchun shuni ta'kidlash zarurki, mahalliy zodagonlardan Qo'qon qozisi Sattorxon Abdug'afforxonov kabi shaxslar mustamlakachilarning bu boradagi choralarini ma'qullahga majbur bo'lishgan va rus-tuzem maktablarining ochilishida yordam bergan. Biroq bu maktablarni bitirib chiquvchilar doimo ozchilikni tashkil etardi, chunki ko'pchilik o'quvchilar rasman ro'yxatga olingan bo'lib, mashg'ulotga bir-bir qatnashib qo'yishardi. Turkiston o'lkasi 1-o'qituvchilar qurultoyida - (1917-yil 9-14 may) ta'kidlaganidek, rus-tuzem maktablari o'quvchilarining ko'pi IV sinfgacha yetib bormagan. Masalan Farg'ona oblastidagi 23-maktabda 40 kishi o'quv kursini to'liq o'tgan [4;2].

Rossiya imperiyasi va Turkiston mustamlakachi ma'muriyati Toshkent (1892 y), ayniqsa, Andijon (1898 y) qo'zg'ononlaridan keyin o'lkani qattiq boshqaruvi rejimini haddan tashqari qattiqlashtirib yubordi. Provoslav aholini metropoliyadan Toshkent vohasi va Farg'ona vodisiga ko'chirish ko'lamini ancha kengaytirdi. Bu yerda Rossianing hukmronligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday siyosiy, ijtimoiy omillarning oldini olishga, ularni bostirishga harakat qilardi.

Shunday vaziyatda yuzaga kelgan jadidchilik eng avvalo o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalarini amalga oshirishi tufayli rivojlanib, mustahkamlandi. Farg'ona vodisida, ilk yangi usul maktablari 80-yillar oxirida paydo bo'lgan. Dastlab bu maktablarda tatarlar o'qituvchilik qilishgan. N.P.Ostromov 80-yillar oxirida mustamlakachi ma'muriyatda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh muboshiri lavozimini egallab turgani hamda sodir bo'lib turgan voqealarga, ayniqsa, musulmon aholi ta'limi sohasidagi jarayonlarga bevosita alaqador bo'lgani bois uning Farg'ona vodisi shaharlarda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi vaqtি borasidagi ma'lumotlariga ishonmaslikka asos yo'q. Boz ustiga, yangi usul maktablari, asosan 80 - yillarda shaharlarda ko'plab paxta tozalash

TARIX

zavodlariga ega bo'lgan badavlat o'zbeklar mablag'iغا ochilgan. Masalan, keyinchalik Andijon qo'zg'olonini tayyorlashga aloqadorlikda ayblangan Mirkomil Mirmo'minboyev shunday sanoatchi boylardan edi.

XIX asrning 90-yillarda, Qo'qon, Andijon, Namangan va boshqa shaharlarda mahalliy qozi va muftiyalar roziliqi bilan ochilgan yangi usul maktablari diniy fanlardangina emas, balki ko'plab dunyoviy fanlardan Qozon madrasalarini bitiruvchilari emas, isloh qilingan mahalliy madrasalarning bitiruvchilari dars berishgan. Bunday hol Qo'qon, Marg'ilon va boshqa vodiylar shaharlari bo'lgan.

Farg'ona vodiysida ham yangi usul maktablari yilma - yil o'sib borgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1910-yilda Qo'qonda – 7 ta, Andijonda – 10 dan ziyod yangi usul maktablari ish olib borgan. Boshqa ma'lumotlarga qaraganda esa Qo'qonda – 14 ta, Andijonda – 19 ta yangi usul maktablari bo'lgan [5;14].

Farg'ona viloyati bo'yicha 1917-yil boshida mavjud bo'lgan yangi usul maktablari 55 dan ziyod - faqat Andijon va Qo'qonning o'zida 33 ta bo'lgan [6;261]. Turkiston oblastlari bo'yicha ma'lumotlar 1917-yil boshida mavjud bo'lgan yangi usul maktablari tarmog'ini nisbatan to'la ko'rsatadi. Chunonchi, Farg'ona oblastida 55 dan ziyod (faqat Andijon va Qo'qonning o'zida 33 ta maktab, Samarqandda-5, Sirdaryoda-40, Yettisuvda-18, Kaspiyotida-4 ta shunday maktablar bo'lgan. Boz ustiga, graf K.K. Palen taftish komissiyasi tomonidan ta'kidlanganidek, "siyosiy mulohazalardan ko'ra ko'proq o'sib kelayotgan avlodga hozirgi zamonning voqeiy talablariga ancha muvofiq keladigan ma'lumot berish istagida bo'lgan tub aholi bu maktablarga o'z farzandlarini bajonudil beradi..."[7;151]

XULOSA

Farg'ona viloyatining ko'p millatli tub aholisi, eng avvalo uning ziyyolilari, viloyatning iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslarining ekspluatatsiya qilinishiga, ijtimoiy va milliy zulmga javoban o'sib borayotgan milliy o'zlikni anglash, mahalliy xalqlar tur mush tarzini belgilovchi, asosiy milliy, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish va boyitishga intilishni namoyish qildi. Va harbiy-siyosiy tazyiqqa zid o'laroq, ma'rifatparvarlik, keyin esa siyosiy intilishlari bilan, shahar va ko'plab qishloqlarda yangi usul maktablar ochish, madrasa va eski usul maktablarini zamonaviylashtirish, ko'plab ajoyib ilmiy - tarixiy, falsafiy, tibbiy, pedagogik asarlar, diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha darsliklar, badiiy va folklor asarlari, milliy san'at namunalarini yaratish, mahalliy xalqlar tilida gazeta va jurnallar chop etish, bu xalqlarni mustamlakachilikka qarshi, ozodlik shiorlari ostida birlashtirish, nihoyat milliy demokratik hukumat - Turkiston, Qo'qon muxtoriyatini tuzish kabi milliy – vatanparvarlik jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishi buning eng muhim dalili bo'ldi:

Bu kabi ijobji o'zgarishlarni, tub xalqlarning ta'llim tizimida nihoyatda muhim o'zgarishlarni amalga oshirganini ko'ramiz. Mahalliy aholini milliy ongini oshirishga, ijtimoiy faoliyatini uyg'onishga, tarixiy o'zligini saqlab qolishga fidokorona xizmat qilganlar orasida Qo'qonlik ma'rifatparvarlar Abduqodir Zohiri, Yunusjonhoji Oq'aliq o'g'li kabi o'nlab, yuzlab ziyyolilar juda o'lkan hissasini qo'shganlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь.- Тошкент. 1913.- С.11-12.
2. ЎзРМА. И-1-жамғарма, 4-рўйхат, 136-иш, 30 орқа 31 вараглар.
3. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. М.: Наука, 1960.-С.220.
4. Егоров Ф. Система просвещения туземцев в Туркестане // . I Туркестанские ведомости. 1917, № 48.
5. Ардаширов А.Ф. К вопросу о роли новометодных мактабов (по материалам Андиканской области). Ученые записки Андиканского Госспединститута). Вып VI.-Андижан.1957. -С.14.
6. Наука и просвещение- Тошкент. 1922, №2.С.31-33; Кондриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане.М.:Наука.1960.-С.260-261.
7. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему по велению сенатором гофмейстром К.К.Паленом. Т.VI. Учебное дело. СПб., 1910. –С.151.